**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BOTANIKA INSTITUTI**

**JAMALOVA DILAFRUZ NE'MATILLA QIZI**

# *FERULA TADSHIKORUM* PIMENOV VA *FERULA MOSCHATA* (H.REINSCH) KOSO-POL. NING *IN VITRO* SHAROITIDA BIOLOGIYASI

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**UO‘K: 581.143.6:581.52:577.164.2 (043.3)**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**
**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD)**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Jamalova Dilafruz Ne’matilla qizi**
*Ferula tadshikorum* Pimenov va *Ferula moschata* (H.Reinsch) Koso-Pol. ning *in vitro* sharoitida biologiyasi ……3

**Жамалова Дилафруз Неъматилла кизи**
Биология *Ferula tadshikorum* Pimenov и *Ferula moschata* (H.Reinsch) Koso-Pol. в условиях *in vitro*……22

**Jamalova Dilafruz Ne’matilla qizi**
Biology of *Ferula tadshikorum* Pimenov and *Ferula moschata* (H.Reinsch) Koso-Pol. *in vitro* conditions ……43

**E’lon qilingan ishlar ro‘yhati**
Список опубликованных работ
List of published works……46

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BOTANIKA INSTITUTI**

**JAMALOVA DILAFRUZ NE'MATILLA QIZI**

# *FERULA TADSHIKORUM* PIMENOV VA *FERULA MOSCHATA* (H.REINSCH) KOSO-POL. NING *IN VITRO* SHAROITIDA BIOLOGIYASI

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/B720 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Mustafina Feruza Usmanovna**<br>biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Ubaydullayeva Xurshida Abdullayevna**<br>biologiya fanlari doktori, professor |
| | **Adilov Behzod Abdullayevich**<br>biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Jizzax davlat pedagogika universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 8 - avgust kuni soat $14^{00}$ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (72-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 24- iyul kuni tarqatildi.
(2025-yil 24- iyuldagi 11-raqamli reestr bayonnomasi)

**K.Sh. Tojibayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

**A.V. Maxmudov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

**H.F. Shomurodov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** So‘nggi yillarda noyob, yo‘qolib ketayotgan hamda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan dorivor o‘simliklarni ommaviy ko‘paytirish va saqlashga qaratilgan to‘qimalarni yetishtirish usullariga qiziqish ortib bormoqda. Zamonaviy biotexnologiya tezlashtirilgan klonlash, genotiplarni saqlash, shuningdek, o‘simliklarning genetik modifikatsiyasi, ko‘p miqdorda yaxshilangan xususiyatlarga ega tabiiy biologik faol birikmalarni olish uchun gen ekspressiyasini boshqarish kabi imkoniyatlarni yaratadi. O‘simliklarni ko‘paytirishning biotexnologik usullarini ishlab chiqish, genetik banklar va hujayra kulturalari kolleksiyalarini yaratish tabiatda tarqalgan noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlarning genofondini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash va noyob o‘simlik turlarini saqlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hosildorlikni oshirish, agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirish va ekotizimlarni tiklashda muhim rol o‘ynaydigan biotexnologik tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashdir.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-sonli qarori yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, ularni yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi. Ushbu qaror farmasevtika va qishloq xo‘jaligi sohasidagi biotexnologik tadqiqotlarning ahamiyatini ta’kidlaydi, chunki gen muhandisligi va o‘simliklarni yetishtirishning zamonaviy usullari nafaqat noyob turlarni saqlab qolish, balki ularning iqtisodiy qiymatini ham oshirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, [2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2020 yildagi PQ-4901-sonli qarori dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori dorivor o‘simliklarni ilmiy asosda yetishtirish va qayta ishlash, ulardan oqilona foydalanishning yagona strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish, respublika hududidagi yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklar areallarini o‘rganish va zaxiralarini aniqlash, mavjud bioresurslar genofondini saqlash, onalik plantatsiyalarini tashkil etish, urug‘lik materiallarini yetishtirish va tayyorlash, ko‘paytirish, kolleksion ko‘chatxonalar tashkil etish hamda ularning xomashyolarini qayta ishlash bilan bog‘liq ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivori o‘simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son Qarori

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.11.2020 yildagi PQ-4901-sonli Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori

borish, dorivor o‘simliklar kimyoviy tarkibini o‘rganish, mahsulotini standartlash va sertifikatlashga qaratilgan.

Barqaror rivojlanish kontekstida O‘zbekiston florasining noyob tabiiy resurslarini muhofaza qilish va saqlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatda o‘simliklarning xilma — xilligi o‘sib bormoqda va bugungi kunga kelib, 4,3 mingdan ortiq tur mavjud bo‘lib, ularning 750 tasi dorivorlik xususiyatini namoyon etadi. Ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda, 70 turi esa farmatsevtika sanoatida faol qo‘llaniladi. Dorivor o‘simliklardan olingan mahsulotlar eksporti 2019 yilda 48 million AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa ushbu yo‘nalishning yuqori salohiyatidan dalolat beradi. O‘simlik farmasevtikasining iqtisodiy ahamiyatiga qaramay, dorivor o‘simlik materiallarini saqlash, yetishtirish va qayta ishlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali samarali qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirish zarurati mavjud. Ayniqsa, kovrak kabi noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simlik turlarini saqlab qolish uchun biotexnologiyadan foydalanish muhimdir.

Ilgari turlarning xilma-xilligini saqlashning asosiy usullari urug‘chilik banklarida germplazmani saqlash va botanika bog‘larida tirik kolleksiyalarni yaratishni o‘z ichiga olgan. Biroq, *in vitro* sharoitida dorivor o‘simliklarni yetishtirish biotexnologiyasi tobora dolzarb bo‘lib, u o‘simliklarni saqlab qolish va ulardan barqaror foydalanishni ta‘minlash uchun yangi zamin yaratmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda har yili katta hajmda eksport qilinadigan *F. foetida* va *F. tadshikorum* kabi turlarning ildizlaridan qatronlar (smola) ayniqsa jadal yig‘ilmoqda. Biroq, bu o‘simliklarning tabiiy populyatsiyalaridan foydalanishning avj olishi ko‘plab turlarning yo‘q bo‘lib ketish xavfiga olib keldi, chunki ular urug‘lash bosqichiga yetib bormay terib ketilishi tufayli kamayib ketishga moyil. *F. tadshikorum* va *F. moschata* kabi turlar uchun o‘simliklarni *in vitro* sharoitida ommaviy ko‘paytirish uchun samarali biotexnologik yechimlarni yaratish ularni saqlash va tabiiy populyatsiyalarini tiklash uchun ayniqsa dolzarb bo‘lib qoladi. Shu munosabat bilan, *F. assa-foetida*, *F. gummosa*, *F. jaeschkeana*, *F. orientalis* va *F. ferulaeoides* kabi ba’zi *Ferula* turkumi turlarini *in vitro* usulida ko‘paytirish uchun protokollar allaqachon ishlab chiqilgan. Biroq, *F. tadshikorum* va *F. moschata* turlarining mikroklonal ko‘payishi muammosi hali hal qilinmagan. Ushbu masalalarni hal etish davlat tashabbuslari bilan birgalikda mamlakatimizning tabiiy dorivor resurslarini muhofaza qilish va tiklash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ladi.

Shunday qilib, davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar biotexnologik tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni iqtisodiyot va ekologiyaning strategik yo‘nalishlariga integratsiya qilish zarurligini anglashni taqozo etadi. Ushbu sohadagi ilmiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash nafaqat barqaror rivojlanishga erishishga, balki mamlakatni innovatsion taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqishga imkon beradi. Zamonaviy biotexnologik yondashuvlarni qo‘llashning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri tabiiy resurslarni, xususan dorivor o‘simliklarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishdir.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bugungi kunga kelib, *Ferula* turkumi turlariga, shu jumladan mikroklonal ko‘paytirish protokollarini ishlab chiqishga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Birinchi *in vitro* regeneratsiyasi Bernard va boshqalar (2007) tomonidan *F. gummosa* uchun yaratilgan bo‘lib va bu ish ushbu turdagi biotexnologiya sohasidagi keyingi ishlar uchun asos bo‘ldi. *In vitro* mikroklonal ko‘paytirish protokollari *F. ferulaeoides* (Steud.) Korov. (Suran va boshq., 2016), *F. assa-foetida* L. (Hassani va boshq., 2008; Zare va boshq., 2010; Roozbeh va boshq., 2012; Otroshy va boshq., 2013), *F. gummosa* Boiss. (Bernard va boshq., 2007), *F. jaeschkeana* Vatke (Sharma va Khajuria, 2020) va *F. orientalis* L. (Tuncer, 2017) kabi turlar uchun ishlab chiqilgan. Biroq, *F. tadshikorum* va *F. moschata* turlarining *in vitro* sharoitida morfogenezi ilgari o‘rganilmagan bo‘lib, mazkur tadqiqotning yangiligini ta’kidlaydi.

*Ferula* turkumi turlarini kimyoviy tarkibini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar, jumladan, Xalilova va Saidxodjayev (1996), Sharopov va boshqalar (2019), Veselovskaya va boshq. (1984), Rahmonov (2017), Sagdullayev (2018), Xodjimatov (1989), Egamberdiyeva va boshq. (2017), Sayfiddinova va boshq. (2023), shuningdek, xorijiy olimlar Batra va boshq. (2017), Gonzalez va boshq. (1995), Zhou va boshq. (2000) tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlarning barchasi tabiiy sharoitda o‘sgan o‘simliklarga tegishli. Biroq, hozirgi kunga qadar *in vitro* sharoitida ikkilamchi metabolitlarning tarkibini o‘rganish, shu jumladan kallus kulturalari, regenerantlar va boshqa turdagi to‘qimalarning fitokimyoviy tarkibini tahlil qilish bo‘yicha ma’lumotlar mavjud emas. Bu, ayniqsa, o‘simliklarning *in vitro* farmakologik salohiyatini baholash va biologik faol moddalarning barqaror manbaalarini ishlab chiqishda bunday tadqiqotlarning ahamiyatini hisobga olgan holda, ilmiy bo‘shliqni keltirib chiqaradi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi botanika institutining A-FA-2021-146 “*In vitro* usullardan foydalangan holda dorivor o‘simliklar turlarini ko‘paytirish va tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqish” (2021-2023-yillar) amaliy loyihasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi**: Ikki kamyob tur— *Ferula tadshikorum* va *Ferula moschata* ni klonal mikroko‘paytirishning samarali tizimini ishlab chiqish, *in vitro* sharoitda morfogenetik jarayonlarni o‘rganish, shuningdek to‘qima kulturalaridagi biologik faol moddalar tarkibini aniqlash.

**Tadqiqot vazifalari:**

1.Populyatsiyalar, ozuqa muhiti, ekzogen omillarning ta‘siri va eksplantlar turiga qarab kallus to‘qimalarida morfogenez induksiyasining qonuniyatlarini

aniqlash;

2. *In vitro* kulturalarida o‘rganilayotgan turlar har xil eksplantlarining (unib chiqqan urug‘ segmentlari, zigotik embrionlar) morfogenetik potensialini aniqlash;

3. Gormonal, trofik va fizik omillarning ularning mikroko‘payishiga ta’sirini aniqlash. Ushbu turlarning turli xil eksplantlaridan *in vitro* aseptik kulturalarni olish sharoitlarini optimallashtirish;

4.Tojik kovragi va sumbul kovrak ning ildiz otish va steril bo‘lmagan *ex vitro* sharoitiga moslanishining optimal rejimlarini aniqlash;

5.Tojik kovragi va sumbul kovrakning klonal mikroko‘paytirish protokollarini optimallashtirish;

6.Yuqori miqdordagi BFM saqlovchi potensial donorlarni tanlab olish maqsadida, klonal liniyalarning BFM tarkibini aniqlash;

**Tadqiqot obyekti:** *Ferula* L. turkumining (Apiaceae) dorivor va O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga (2019) kiritilgan *Ferula tadshikorum* Pimenov va *Ferula moschata* (H.Reinsch) Koso-Pol. turlari.

**Tadqiqot predmeti**: biotexnologiya, fitokimyo, morfologiya, shuningdek, *Ferula* turkumi turlarini muhofaza qilish va saqlashning ilmiy asoslari.

**Tadqiqot usullari.** Ajratilgan o‘simlik to‘qimalari va organlarini yetishtirish bo‘yicha eksperimental ishlar Butenko (1964), shuningdek aseptik kulturalarni olish va saqlash, kallus hosil bo‘lishini induksiya qilish va *in vitro* regeneratsiyaga zamonaviy yondashuvlarning asosini tashkil etuvchi Kalinin va boshqalar (1980) tomonidan ishlab chiqilgan klassik usullarga muvofiq amalga oshirildi.

Biologik faol moddalarni (BFM) o‘rganish metabolitlarning aniq miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlaydigan yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YuSSX) usullari yordamida amalga oshirildi.

*In vitro* kulturalarida olingan tuzilmalar morfologiyasini tahlil qilish va *in vitro* kulturalarida o‘rganilgan turlarning morfogenez jarayonlarini kuzatish Z. P. Pausheva (1988) usuli bo‘yicha stereomikroskop yordamida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Ilk bor *Ferula tadshikorum* va *F. moschata* turlarni *in vitro* kulturasiga kiritish uchun qo‘llanilgan eksplantlarning morfogenetik potensiali aniqlandi;

Gormonal, trofik va fizik omillarning klonal mikroko‘paytirishga ta’siri yoritib berildi;

Ilk bor *F. tadshikorum* va *F. moschata* turlari uchun sterilizatsiya bosqichlari, optimal eksplantlar va ekish sharoitlarini tanlashni o‘z ichiga olgan *in vitro* kulturasiga kiritish protokollari ishlab chiqildi va eksperimental ravishda asoslandi;

Birinchi marta biologik faol moddalar (BFM) tarkibiga asoslangan klonal liniyalarni tanlash va qiyosiy tahlil qilish amalga oshirildi, bu esa *in vitro* sharoitida keyingi yetishtirish va tadqiq qilish uchun istiqbolli liniyalarni aniqlashga imkonini berdi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Ishlab chiqilgan mikroklonlash protokollari asosida 2 ta ixtiro darajasidagi guvohnoma olingan. Ushbu protokollar kovrakni sanoat hajmida keng miqyosda ko‘paytirish uchun qo‘llanilishi mumkin, bu esa farmasevtika korxonalarini barqaror va ekologik toza xom ashyo bilan ta‘minlaydi.

Bu nafaqat tabiiy populyatsiyalarga yukni kamaytiradi, balki fitofarmasevtikani rivojlantirish va o‘simlik dori-darmonlarini kengaytirishga yordam beradigan kovrak asosidagi dori vositalarini ishlab chiqarish narxini pasaytiradi.

Turkum turlarining 130 ta gerbariy namunalari asosidagi ma’lumotlar bazasi Bioxilma-xillik bo‘yicha ma’lumotlarning global tizimiga (www.gbif.org, GBIF) joriy etilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** zamonaviy usullarning qo‘llanilganligi va ular asosida olingan ma’lumotlarning tahlil qilinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Ferula* L. turkumining *F. tadshikorum* va *F. moschata* qimmatli dorivor turlarini mikroklonlash uchun ixtisoslashgan ozuqa muhitni ishlab chiqilganligi, ozuqa muhitlari zamburug‘li, bakterial, virusli, mikoplazma va nematod infeksiyalaridan xoli bo‘lgan genetik jihatdan bir xil ekish materiali olishni ta’minlaydi, bu ularning genetik xilma-xilligi va turg‘unligini saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, taklif qilingan usullar turli xil fitogormonlar va boshqa o‘sish regulyatorlarining morfogenez, regeneratsiya va biologik faol moddalar sintezi jarayonlariga ta’sirini o‘rganishga imkon beradi. Ushbu ikki turni *in vitro* sharoitida ko‘paytirish orqali O‘zbekistonda tarqalgan boshqa Ferula turkumi kamyob turlari uchun *in vitro* usulida ko‘paytirishni ilmiy asoslari yaratiladi. Turli fitogormonlar ta’sirida o‘simliklarda mavjud ikkilamchi metabolitlar sintezini boshqarish mexanizmlari yaratiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ekish materialini yetishtirish va ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanishni optimallashtirish uchun yil davomida samarali yetishtirish texnologiyalarini yaratilganligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan mikroklonlash protokollari kovrakni sanoat miqyosida ko‘paytirish uchun qo‘llanilishi mumkin, bu esa farmasevtika korxonalarini barqaror va ekologik toza xom ashyo bilan ta’minlaydi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “*Ferula tadshikorum* Pimenov va *Ferula moschata* (H. Reinsch) Koso-Pol. ning *in vitro* sharoitida biologiyasi” ni o‘rganish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘simliklarning *in vitro* sharoitida klonal mikroko‘paytirish bo‘yicha olingan natijalar Toshkent Botanika bog‘i faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2024-yil 6-noyabrdagi №4/1255-2470-sonli ma’lumotnomasi). Bu esa, *in vitro* sharoitida klonal mikroko‘paytirsh orqali o‘simliklarning ko‘chatlarini yetkazib berish imkonini bergan;

o‘simliklarning 130 gerbariy namunalari bo‘yicha ma’lumotlar bazasi Global bioxilma-xillik ma’lumotlari tizimiga (www.gbif.org, GBIF) joriy etilgan (Global bioxilma-xillik ma’lumotlari bazasining 2025-yil 13-maydagi guvohnomasi). Natijada, o‘simliklarning O‘zbekistonda tarqalish hududlari bo‘yicha ma’lumotlarni xalqaro miqyosda olish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini nashr etish.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, shu jumladan Scopus bazasida indekslangan jurnallarda 3 ta maqola, xorijiy nashrlarda 2 ta maqola va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shuningdek, xalqaro konferensiyalarda 5 ta va respublika ilmiy konferensiyalarida 2 ta ma'ruza tezislari chop etilgan. Bundan tashqari, Ixtiro turidagi 2 ta guvohnoma olingan.

**Dissertatsiya hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tasniflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **"*Ferula* L. turkumi turlari biotexnologiyasini o'rganilish tarixi"** deb nomlangan birinchi bobida *Ferula* turkumi turlarida olib borilgan biotexnologik tadqiqotlar, *in vitro* sharoitida o'simliklardagi morfogenez bosqichlari, jumladan kallusogenez, somatik embriogenez, organogenez bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. *Ferula* turkumining biotexnologik yo'l bilan ko'paytirilishi ilk bor 2008 yilda Eronda Bernard tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ushbu taqdqiqotlarda *Ferula* turkumi turlari uchun somatik embriogenez jarayoni xosligi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan. Bundan tashqari, morfogenez jarayonlariga ekzogen o'sish regulyatorlarining ta'siri haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Umuman olganda, turkum turlarini *in vitro* sharoitida klonal mikroko'paytirish ishlarining aksariyati Eronlik tadqiqotchilarga tegishli bo'lib, qisman Hindiston va Turkiyada ham bunday tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiyaning **"Tadqiqot obyektlari va metodlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'yekti sifatida olingan dorivor va bugungi kunga kelib soni kamayib borayotgan tojik kovragi va sumbul kovrakning botanik tavsifi, kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Metodlar qismida esa tadqiqot davomida amalga oshirilgan barcha eksperimental usullar haqida batafsil to'xtatlib o'tilgan. Bunda daladan keltirilgan eksplantlarni turli xil sterillash bosqichlari va turlari, turli ozuqa muhitlari va ularga qo'shilgan fitogormonlar kombinatsiyasining 183 dan ortiq turi, o'rganilayotgan obyektlarni *in vitro* kulturasiga kiritish bosqichlari, olingan regenerant o'simliklarni ildizlatish va *ex vitro* sharoitiga moslashtirish jarayonlari, morfogenezning kallusogenez


hamda organogenez bosqichida ulardagi biologik faol moddalarni ekstraksiya qilish usullari hamda miqdoriy tahlil qilish usullari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bunda foydalanilgan turli ozuqa muhitlari ichida eng maqbuli Murasiga va Skug (MS), ya'ni morfogenez jarayonining barcha bosqichlarida ham birdek qo'llay olish mumkin bo'lgan ozuqa muhiti ekanligi, qolgan ozuqa muhitlari, masalan WPM faqat daraxt turlar uchun, DKW ozuqa muhiti esa organogenezni jadal kuchaytirib, o'rganilayotgan obyekt turlarda anomal regenerantlar hosil bo'lishiga olib kelishi holatlarini namoyon etdi. Fitogormonlar kombinatsiyasida ham o'ziga xosliklar kuzatilib, kallusogenez uchun 2,4- dixlorfenoksisirka kislotasining past konsentratsiyasi, somatik embrionlar hosil bo'lishi uchun kinetin, somatik embrionlarning o'simlikka aylanish bosqichida esa aksincha kinetinni muhitdan chiqarish, regenerant o'simlik olish uchun esa gormonsiz ozuqa muhiti, ildizlatish uchun esa indolilmoy kislotasi, nozik regenerant o'simliklarni bo'yiga o'sishi va baquvvatlashishi uchun esa benzilaminopurinning past konsentratsiyalari maqbul ekanligi aniqlandi. Somatik embrionlar hosil bo'lishi dastlab hosil bo'lgan kallus to'qimalarni 7-10 kun davomida qorong'uda saqlash orqali kuchliroq stimullanishi kabi jarayonlar aniqlandi.

Dissertatsiyaning **"*Ferula* L. turkumi kamyob va endem turlarining to'qima va organlarining morfogenetik potensiali hamda *in vitro* regenerant o'simliklarining xususiyatlari"** deb nomlangan uchinchi bobi turlarni *in vitro* sharoitida ko'paytirishda ularda kechadigan turli morfogenez jarayonlari, jumladan kallus hosil bo'lishidan boshlab, regenerant o'simlik hosil bo'lishigacha bo'lgan bosqichlardagi o'zgarishlar, ularga turli omillarning ta'siri haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Ushbu bob bir necha bo'limlardan iborat. Eksplant sifatida asosan urug' olinganligi sababli, turlarning *in vitro* sharoitida urug' unuvchanligi o'rganilganda, *F. tadshikorum* turining ikkita populyatsiyasidan (FT1 va FT3_K) terib keltirilgan urug'lar 55-60% unuvchanlikni namoyon etdi. *F.moschata* turining *in vitro* sharoitidagi urug' unuvchanligi turli sterilizatsiya, stratifikatsiya jarayonlarini qo'llaganda ham ijobiy natija bermadi. Shu uchun bu turda eksplant sifatida kelgusida urug' murtagidan foydalanildi (1-rasm).

Uchinchi bobning ikkinchi bo'limi ikki turning kallusogenez jarayonlari hamda ushbu jarayonga fitogormonlarning ta'sirini aniqlashga bag'ishlangan. *F. tadshikorum* da eksplant sifatida ham unib chiqqan urug'ning turli segmentlari hamda urug' murtagi ishlatilganligi uchun, kallusogenez jarayoni hamda kallusdan keying jarayonlarda farqlar kuzatildi. Unib chiqqan urug'ning faqatgina ildizcha va gipokotilning bazal qismida kallusogenez jarayoni kuzatilib, urug'pallada hech qanday morfogenez kuzatilmadi. Eksplant ekilgandan 7-10 kun ichida kallus hosil bo'lishi kuzatilib, bunda MS ozuqa muhitida 2,4-D (0.5 mg/l) + Kin (0.5 mg/l) va 2,4-D (0.5 mg/l) + TDZ (0.5 mg/l) fitogormonlar kombinatsiyasi eng yaxshi ko'rsatkichni namoyon etib, tegishlicha 3,4±0,30 va 3,6±0,26 (zigotik embrion), 4,1±0,18 va 3,9±0,18 (ildizcha va gipokotilning bazal qismi) ni tashkil etdi (2-rasm).




**1-rasm.** *Ferula tadshikorum.* Unib chiqqan urug‘ segmentlaridan eksplant sifatida foydalanish (gipokotil, urug’pallabarg, ildizcha) A. Urug‘larni 25 % li Murasige va Skug (1962) ozuqa muhitiga +5°C sharoitda sovutkichda 1-4 hafta davomida qorong‘uda saqlash. Б. Urug‘larni 50% li MS (1962) muhitiga o‘tkazishda 24±2°C haroratda kultural xonaga joylashtirish В. Г. Unib chiqqan urug‘lar




**2-rasm.** Fitogormonlarning turli xil kombinatsiyalarida zigotik embrionlarda va ildizchada kallus hosil bo‘lish intensivligini taqqoslash

*F.moschata* turida kallusogenez jarayoni zigotik embrionlarda 8-10 kunda kuzatilib, 12-14 chi kunlarga kelib yetuk zigotik embrionlarning 90 % ida kallusogenez induksiyasi kuzatildi. 2,4-D ni 0,5 mg/l konsentratsiyasida qo‘llash kallus hosil bo‘lish jarayonini samarali rag‘batlantirdi. 2,4-D (0,5 mg/l) ni TDZ (0,5 mg/l) bilan birgalikda qo‘llanilganda eksplantlarning 60-70 foizida kallus massasi (5,8 ± 0,38) oshdi (2-jadval). Shakllangan kalluslar oq rangga, yumshoq tuzilishga va nomorfogen xususiyatga ega edi. Ushbu bosqichda embriogen kalluslar atigi 12,5 % ni tashkil etgan. Fitogormonlarning turli kombinatsiyalaridan olingan kalluslar morfologik jihatdan bir-biridan farq qiladi. 2,4-D (0,2–0,5 mg/l) past konsentratsiyalarda kallus to‘qimasi oq, och sariq yoki och yashil rangga ega bo‘lgan. TDZ (0,2–0,5 mg/l) qo‘shilishi kallus massasining sezilarli darajada oshishiga olib keldi, morfogen va embriogen tuzilmalarning shakllanishini

rag‘batlantirdi. TDZ hujayra bo‘linishini va kallus to‘qimalarining shakllanishini boshqa sitokininlarga qaraganda samaraliroq qo‘zg‘atadi. Past konsentratsiyalarda u fotosintetik faollikni oshiradi, natijada kallus och yashil rangga ega bo‘ladi. Kinetin bilan birgalikda kalluslar embriogen elementlarni namoyish etdi, ammo massa bo‘yicha tdz qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan kalluslar kinetinli kombinatsiyalarga nisbatan ustunlik qiladi (1-jadval).

**1-jadval**


***F. moschata* da ayrim o‘simlik gormonlarining kallusogenez, bilvosita somatik embriogenez va ikkilamchi somatik embriogenezga ta’siri**

| Fitogormonlar | O‘rtacha kallusogenez ko‘rsatkichi | O‘rtacha bilvosita somatoembriogenez ko‘rsatkichi | O‘rtacha ikkilamchi somatoembriogenez ko‘rsatkichi |
|---|---|---|---|
| 2,4-D (0,2) | 1,3±0,15$^{(a)}$ | 0,4±0,16$^{(a)}$ | 1,2±0,16$^{(a)}$ |
| 2,4-D (0,5) | 3,3±0,55$^{(b)}$ | 1,1±0,18$^{(b)}$ | 1,2±0,16$^{(a)}$ |
| 2,4-D (1,0) | 1,6±0,16$^{(a)}$ | 0,4±0,16$^{(a)}$ | 0,2±0,16$^{(a)}$ |
| 2,4-D (0,2)+kin (0,2) | 2,3±0,21$^{(ab)}$ | 0,8±0,13$^{(a)}$ | 2±0,16 $^{(b)}$ |
| 2,4-D (0,5)+kin (0,2) | 2,9±0,37$^{(b)}$ | 1,7±0,26$^{(b)}$ | 2,9±0,16$^{(c)}$ |
| 2,4-D (0,2)+kin (0,5) | 2,9±0,23$^{(b)}$ | 1,8±0,20$^{(b)}$ | 2,7±0,21$^{(c)}$ |
| 2,4-D (0,5)+kin (0,5) | **5,2±0,35$^{(c)}$** | **4,8±0,32$^{(c)}$** | 2,5±0,34$^{(d)}$ |
| 2,4-D (0,2) | 2±0,29$^{(ab)}$ | 0,6±0,16$^{(a)}$ | 0,9±0,23$^{(a)}$ |
| 2,4-D (0,5) | 2±0,25$^{(ab)}$ | 1,6±0,16$^{(b)}$ | 1,9±0,17$^{(b)}$ |
| 2,4-D (0,2)+TDZ (0,2) | 3±0,40$^{(b)}$ | 2,1±0,23$^{(b)}$ | 1,8±0,25$^{(b)}$ |
| 2,4-D (0,5)+TDZ (0,2) | 3,2±0,32$^{(b)}$ | 2,4±0,22$^{(b)}$ | 4,9±0,45$^{(e)}$ |
| 2,4-D (0,2)+TDZ (0,5) | 3±0,21$^{(b)}$ | 2,6±0,22$^{(b)}$ | 2,1±0,27$^{(c)}$ |
| 2,4-D (0,5)+TDZ (0,5) | **5,8±0,38$^{(c)}$** | 3,3±0,26$^{(c)}$ | 4,1±0,31$^{(d)}$ |
| IBA (0,2)+BAP (0,2) | 2,7±0,33$^{(ab)}$ | 0,7±0,15$^{(a)}$ | 4,5±0,22$^{(e)}$ |
| IBA (0,5)+BAP (0,2) | 2,8±0,25$^{(ab)}$ | 0,6±0,16$^{(a)}$ | 3,7±0,36$^{(d)}$ |
| IBA (0,5)+BAP (0,5) | 4±0,33$^{(bc)}$ | 1,2±0,13$^{(b)}$ | **5±0,39$^{(f)}$** |
| IBA (0,2)+BAP (0,5) | 2,8±0,20$^{(ab)}$ | 0,9±0,18$^{(a)}$ | 2,8±0,25 $^{(c)}$ |
| NAA (0,2)+BAP (0,2) | 3±0,36$^{(b)}$ | 0,2±0,13$^{(a)}$ | 1,9±0,23$^{(b)}$ |
| NAA (0,5)+BAP (0,2) | 3,2±0,25$^{(b)}$ | 0$^{(a)}$ | 1,2±0,13$^{(a)}$ |
| NAA (0,5)+BAP (0,5) | 3,2±0,29$^{(b)}$ | 0$^{(a)}$ | 2,4±0,30 $^{(b)}$ |
| NAA (0,2)+BAP (0,5) | 2,4±0,16$^{(ab)}$ | 0$^{(a)}$ | 1,4±0,22$^{(a)}$ |
| Nazorat guruh (fitogormonlarsiz) | 0,7±0,15$^{(a)}$ | 0$^{(a)}$ | **6,2±0,44$^{(g)}$** |

Uchinchi bobning uchinchi va to‘rtinchi bo‘limlari har ikkala turning morfogenez yo‘llari, kallusogenezdan regenerant o‘simlik paydo bo‘lgungacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga olgan.

***F. tadshikorumda* bilvosita organogenez va somatik embriogenez.** *F. tadshikorumda* hosil bo‘lgan kalluslarda morfogenez ikki xil yo‘l bilan kechdi: bilvosita somatik embriogenez va bilvosita organogenez. 8-10 haftalik kalluslar turli ozuqa muhitlari va fitogormonlar kombinatsiyasiga ko’chirib o‘tkazilganda, kinetinli kombinatsiyalardan olingan kalluslarda somatik embrionlar hosil bo‘la boshladi. Aksincha TDZ li kombinatsiyalardan hosil bo‘lgan kalluslarda organogenez elementlari, ya’ni novda shakllana boshlanganini ko‘rish mumkin.

Bunda IMK (0,5)+BAP (0,5) kombinatsiyasi organogenezni stimullovchi optimal variant ekanligi namoyon bo‘ldi. BAP ning bu konsentratsiyadan oshirilishi, anomal o‘simtalar hosil bo‘lishiga olib keldi. Hosil bo‘lgan o‘simtalarni kallusdan ajratib gormonlarsiz ozuqa muhitiga ko‘chirilganda bu o‘simtalar tez rivojlanishi kuzatildi.




**3-rasm.** *F. tadshikorum*: bilvosita somatik embriogenez va bilvosita organogenez. A. morfogen kallus; Б. kallus yuzasida somatoembrioidlarning shakllanishi. В. organogen tuzilmalarni shakllanishi. Г. morfogen kallus yuzasida globulyar somatoembrionlar. Д va Е. novdalar paydo bo‘lishi. Ж. somatik embrionlardan hosil bo‘lgan regenerant o‘simliklar. З kallus to‘qimasidan o‘simtalarning paydo bo‘lishi. И. regenerant o‘simliklar.


Bilvosita organogenez (kallus orqali) yo‘li bilan hosil bo‘lgan o‘simliklarni ildizlatish uchun auksinlarning turli kombinatsiyalari qo‘llanilib, ulardan eng maqbuli IMK ning past konsentratsiyalari va MS ozuqa muhitining 50 % li fitogormonlarsiz muhiti ekanligi aniqlandi (3-rasm).

*F.tadshikorumda* bilvosita somatik embriogenez eksplant ekilgandan boshlab 3-4 oylarda kuzatila boshlandi. Kinetinli kombinatsiyalardan hosil bo‘lgan kalluslarda embrioidlar paydo bo‘la boshlagach, ular fitogormonlarsiz ozuqa muhitiga ko‘chirib o‘tkazilganda, globulyar shakldan yuraksimon, torpedasimon va oxiri urug‘palla shakliga o‘tib o‘simtalarga aylanishi kuzatildi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, agar kalluslardan hosil bo‘lgan embrionlarni uzoq vaqat qayta qayta 2,4-D gormonli kombinatsiyalarga ko‘chirib o‘tkazilsa, embrionlarning qayta

kallusga aylanishi kuzatila boshlaydi. Somatik embrionlarga o‘zining to‘rttala rivojlanish stadiyasini bosib o‘tib, o‘simlikka aylanishi uchun muhitdan gormonlarni olib tashlash maqbul variantdir. Kulturalar 24°C haroratda, nisbiy namlik 40%, 16/8 soat (yorug‘lik/ qorong‘ulik) fotoperiodda va yorug‘lik 1000-1300 lyuksda yetishtirilgan.

*F.tadshikorumda* kuzatilgan ushbu ikki morfogenez yo‘li orqali hosil bo‘lgan regenerantlar bir biridan tuzilishi, jarayonni borish davomiyligi bilan farq qiladi. Bilvosita organogenezdan hosil bo‘lgan regenerantlarning yer ustki qismi ildiz tizimiga nisbatan kuchliroq rivojlanib, regeneratsiya chastotasi 42 ± 0,19 % ni tashkil etib, o‘rtacha 7-8 oyni o‘z ichiga oladi. Bu jarayondan farqli o‘laroq, bilvosita somatik embriogenez bipolyar struktura hosil qilish bilan namoyon bo‘lib, hosil bo‘lgan regenerant o‘simliklar ham novda, ham ildiz tizimiga ega. Bu jarayon uchun o‘rtacha 5-6 oy sarflanadi va hosil bo‘lgan regenerantlar bilvosita organogenezdan hosil bo‘lgan o‘simliklarga nisbatan kichikroq bo‘ladi. Regeneratsiya chastotasi bitta kallusga nisbatan 20 ± 1,7 % ni tashkil etdi. Organogenez yo‘li bilan olingan o‘simliklar tabiiy sharoitda ikki yillik yuvenil o‘simliklarga to‘g‘ri keladi, balandligi 4-5 sm ga yetadi va haqiqiy yashil barglarni hosil qildi. Shu bilan birga, bilvosita somatik embriogenez natijasida hosil bo‘lgan o‘simliklar bir yillik yuvenil o‘simliklarga o‘xshab, generativ ko‘chatlarga mos keladi, balandligi 2-3 sm bo‘lib, urug‘pallabarglari mavjudligi bilan ajralib turadi.

***F. moschatada* bilvosita somatik embriogenez va ikkilamchi somatik embriogenez.** Ushbu turda ham somatik embrionlar hosil bo‘lishi uchun 2,4-D, kinetinning 0,5 mg\l konsentratsiyalari maqbul variant ekanligi tadqiqotlarda namoyon bo‘ldi. Hosil bo‘lgan kalluslarning sirt yuzasida globulyar embrionlarning paydo bo‘lishi 51 % ni tashkil etdi, bu ko‘rsatkich esa *F. tadshikorumga* nisbatan (20 %) ikki baravar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Kinetinning 0,2 mg\l dan past konsentratsiyasida somatoembriogenez induksiyasi kuzatilmadi. Birinchi yoki uchinchi ko‘chirib o‘tkazishda ozuqa muhitida somatik embrionlarning turli bosqichlardagi rivojlanish shakllari kuzatildi: sharsimon, yuraksimon, torpedosimon va urug‘pallasimon. Sferik bosqichda (20-23-kun) embrionlar yumaloq, biroz yassilangan shaklga, zich tuzilishga va oq rangga ega bo‘lib, ularning o‘lchamlari 100-150 mkm ni tashkil etdi Yuraksimon shaklidagi bosqichda (25-30-kun) hajmi 200-300 mkm gacha o‘sdi, tuzilishi zich bo‘lib qoldi, to‘qimalarning differensiatsiyasi boshlandi. Torpedosimon bosqichda (30-35-kun) embrionlar cho‘zilib, uzunligi 400-600 mkm ga etdi, xarakterli cho‘zinchoq shaklga ega bo‘ldi, apikal va bazal zonalarning shakllanishi bilan aniq qutblanishni ko‘rsatdi, bu morfogenez jarayonlarining kuchayganligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, somatik embrionlarning rivojlanishi aniq morfologik bosqichlardan o‘tdi, ularning har biri o‘ziga xos tuzilish va o‘lcham xususiyatlari bilan ajralib turardi va kinetinning optimal kontsentratsiyasi (0,5 mg/l) somatik embrionlarning muvaffaqiyatli induksiyasi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.




**4-rasm.** *F. moschata:* bilvosita somatik embriogenez. A. yetuk zigotik embrionlar (eksplant sifatida); B. zigotik embrionlarda kallus induksiyasi; C, D, E, F. bilvosita somatik embriogenezning induksiyasi va turli shakldagi somatik embrionlarning shakllanishi; G. gormonsiz MS muhitida ikkilamchi somatik embrionlar; H. izolyatsiyalangan alohida somatik embrionlar; I, J, K., somatik embrionlardan rivojlangan o‘simlik; L. tuproq, qum, vermikulit va kokos qipiqlarinio‘z ichiga olgan plastik stakanlardagi regenerant o‘simlik (1:1:1:1).


Beshinchi ko‘chirib o‘tkazilishda somatik embrionlarning o‘simliklarga aylanishi kuzatila boshlandi, bunda fitogormonlar kombinatsiyasi hamda gormonlardan holi MS ozuqa muhitlarida tajribalar olib borildi. Bu bosqichda embrionlarning 42,1% i regenerantlarga aylanishi kuzatildi. Embriogen kallusni IMK (0,5 mg/l) va BAP (0,2-0,5 mg/l) bilan birgalikdagi muhitga o‘tkazishda o‘simliklar hosil bo‘lishi kuzatilgan, biroq abnormal o‘simliklar paydo bo‘lishi ham qayd etilgan. BAP kontsentratsiyasining pasayishi regenerativ o‘simliklarning rivojlanishini sekinlashtirdi, kontsentratsiyaning oshishi esa abnormal o‘simliklar sonining ko‘payishiga olib keldi. Oddiy regenerant o‘simliklarning shakllanishi asosan gormonlarsiz MS muhitida yoki past konsentratsiyali MS muhitida (0,2–0,5 mg/l) IMK va BAP kombinatsiyasida sodir bo‘lgan.

